

ПО‘LAT MO‘MIN IJODIDA BOLALAR TARBIYASI MASALASI

*Barchinoy Ro‘zmatova**FarDU pedagogika va psixalogiya talabasi*

Annotatsiya: Maqolamizda bolalar yozuvchisi Po‘lat Mo‘minning hayot yo‘li, ijodiy faoliyati, qoldirgan boy merosi, asarlarining bolalar tarbiyasidagi ahamiyati haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Bolalar adabiyoti, ertaklar, dostonlar, bolajonlar uchun tarbiyaviy she‘rlar, ta‘lim, odob-axloq.

Har qanday adabiy jarayon borki, uni shakllantirayotgan, uni yaratayotgan muallifdan tug‘ma qobiliyatdan tashqari, kuchli bilim, keng dunyoqarash, tafakkur boyligini talab qiladi. Har qanday qo‘liga qalam ushlagan inson nimanidir yozishni maqsad qilar ekan, uning ertangi kelajagini, kimning qo‘lida varaqlanayotganini, o‘sha kimningdir ruhiy holati va dunyosini tasavvur qilib ko‘radi. Unga yozgan asarim orqali nima bera olaman? Uning dunyo qarashi, tafakkuriga ijobiy tuyg‘u, fikr bera olamanmi? Degan ming xil o‘y-xayol bilan, har bir yozayotgan so‘zi, misrasiga ming hayajon, hadigini qo‘shib yozadi. Agar u bolalar yozuvchisi bo‘lsachi, undagi hadik, hayajon yana ham katta bo‘ladi. Chunki hayot tajribasiga ega, oqni qoradan ajrata oladigan inson o‘z o‘qigan asariga fikr bildira oladi, yaxshi yomonga ajratadi. Lekin faqat bolagina o‘qiyotgan narsasini eng to‘g‘ri va haqiqat deb o‘ylaydi. Uni butun vujudi bilan qabul qiladi, yozilgan har bir jumlaning ongi orqali o‘ziga singdirib amal qila boshlaydi. Shuning uchun ham bolalar yozuvchisi bo‘lish uchun keragidan ortiq hayotiy tajriba, bilim va salohiyat talab etiladi. Chunki yozuvchi asarda shunchaki hissiy holatini bayon qilolmaydi, oq qog‘ozga shunchaki dardini, xulosalarini to‘kib sololmaydi, u bolani shakllantirayotganini, unga tarbiya berayotganini anglagan holda “yetti o‘lchab, bir kesadi”. Ana shunday mas‘uliyatni yelkasiga ortgan yozuvchilardan biri, bolalarning suyuqli shoiri Po‘lat Mo‘mindir. Shoir muazzam poytaxtimiz Toshkent shahrida tavallud topdi. U yoshligidanoq adabiyotga havas qo‘ydi. U Toshkent pedagogika bilim yurtida o‘qib yurgan vaqtida adabiyot to‘garagiga faol qatnashdi. Adabiyotni qunt bilan o‘qidi, o‘rgandi. Uning maktabda o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritgani ham bolalar yozuvchisi sifatida shakllanishida muhim omil bo‘ldi. U avval kichik-kichik she‘rlar yoza boshladi. “Bahorga sayohat” nomli birinchi she‘ri bosilib chiqdi. Birinchi she‘rlar to‘plami “Sayrang, qushlar” nomi bilan nashr etildi. Kitob adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. To‘plamdan munosib o‘rin olgan “Haykal”, “All avaj Jalla” (ertak) singari asarlari mazmundorligi, qiziqarliligi, tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan nafaqat kitobxon o‘quvchilar, balki, kattalarning ham e‘tiborini qozondi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek bolalar yozuvchisi bo‘lib tug‘ilish uchun qobiliyat va xohishning o‘zi yetarli emas. “Beliniskiy ta‘rifi bilan aytganda, bolalar yozuvchisi bo‘lib tug‘ilish kerak”.¹ Bu bolalar yozuvchisi mohir pedagoglarday bola qalbining bilimdoni bo‘lsin, nozik ta‘b egasi, go‘dak tabiati va psixologiyasining bilimdoni,

¹ Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklori. – Toshkent, 2006. – B. 167.

mehribon va bolajon, kamtarin va samimiy, bolarlarcha soddadil ham dono bo'lsin, degan mazmuni taqazo etadi, albatta. Biz Po'lat Mo'min ijodida ana shunday olijanob hislatlar mujassam ekanini ko'rishimiz mumkin.

“Shoir tinimsiz ijod tufayli “Hunardan unar”, “To'g'ri o'sgan gul bo'lar”, “Aql qayerda bo'lar”, O'rinbosarlar”, “Oltin nay”, “Bir yarim Karim”, “Endi adashmaydi”, “Barcha bola do'st bo'lsa”, “Rahmatga rahmat”, “Gaz polvon ertak aytar”, “Chang yutar botir”, “Do'sting qancha ko'p bo'lsa”, “Oftob va Odob”, “Yaxshilarga o'xshasam”, “Bu juda soz”, “Eson va Omon”, “Oltin oltin qo'l”, “Ustozlar izidan”, “Bolalarning baxti kulgan”, “Bir yuz bir oltin qo'l” she'riy to'plamlari; “Chanoqboy va Qovoqboy”, “Bahodirning botirligi”, “Oq fil yo'qoldi”, “Suqatoy-Konfetvoy”, “Bahodirning botirligi”, “Ona bolam deydi” kabi ertaklari, pesalari yuzaga keldi.”² Bu to'plamlarga kiritilgan she'r va qo'shiqlar, ertak va dostonlari bolalar adabiyoti xazinasini o'lmas asarlar bilan boyitdi va bu asarlarning bir nechtasi chet tillariga tarjima qilinib, nafaqat o'zbek bolalari balki, jahondagi boshqa bolalarning ham sevimli asarlariga aylandi.

“O'rganar avval odob

Kitob o'qigan boal.
Yuzi bo'ladi oftob
Kitob o'qigam bola.

Hurmat qilar kattani,
Kichiklar jon-u tani.
Bajaradi va'dani –
Kitob o'qigan bola.”³

Po'lat Mo'min “Kitob o'qigan bola” nomli ushbu she'rida yosh avlodga kitob o'qish naqadar kerakligini, kitob o'qigan bola odobli, yuzlari nurli, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lishini, va'dasini doimo bajarishini juda ham sodda, ravon, bola qalbiga kirib boruvchi ohangdorlik bilan qisqa satrlarda yetkazib beradi. Shubhasiz, buni o'qigan bolajon kitob o'qish naqadar kerak ekanligini his qiladi. Beg'ubor qalbida kitobga oshuftalik paydo bo'ladi. Bu kabi tarbiyaviy she'rlarni ukasingillarimiz o'qib katta bo'layotganligi, farzandlarimizga esa kelajakda o'qishi uchun bu kabi ijodkor yozuvchilarning o'lmas asarlari borligi qalbimizga sokinlik va hotirjamlik beradi. Adibning ijodidan har qancha keltirib o'tsak shuncha kam, uning ijod bog'iga qadam tashlar ekansiz, uning kattaligi, kengligi, rang-barangligi, jimjimadorligi ko'zingizni qamashtirib yuborishi aniq. Uning bolalarni mehnatga chorlovchi, dangasalikdan qaytaruvchi bir qator she'rlari borki, uni o'qigan bolajon mehnatdan zavqlanishni o'rganadi. Misol tariqasida bir she'rini keltirib o'tmoqchimiz:

“Yer nima der
Bilasizmi ona Yer
Hammamizga nima der?
Eng birinchi bizga u

² Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – B. 200.

³ Erkatoy.uz

Deydi: - Menga ko'ngil ber.

U bizlarga uqtirar:

– Mehnat qilgan halol yer,

– Hosil beray, - deb aytar,

Peshonadan to'ksang ter.

Bizga yana so'zlaydi: – Yaxshilarga gullar ter.

Eng oxirgi so'zi soz, – Bor ekanman – yashayver.

Bu she'rni o'qiganda kitobxonda “peshonadan to'ksang ter” jumlasini alohida diqqatga sazovor bo'ladi. Kattalar biz farzandlarga ba'zida tanbeh bilan, ba'zida maqtov bilan bu oddiy jumlaning singdirmoqchi bo'lishadi. Lekin Po'lat Mo'min she'riy yo'l bilan shu qadar sodda tilda o'quvchiga bu tuyg'uni singdiradi. Adib ijodida bolalarni nafaqat yaxshi o'qishga, yaxshi inson bo'lishga, bundan ham asosiysi halol mehnatga undov she'r va ertaklar bilan sermazmundir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, “Po'lat Mo'min odob va axloq kuychisi hisoblanadi”⁴. Bizning mustaqil tinch yurtimizda yosh avlodga yaratilgan imkoniyat, sharoitlar ko'zni quvontirarli darajada. Ularga bildirilayotgan umid, ishonch esa ertangi kunimizning qanday bo'lishini hozirdan bilishimiz mumkinligiga misoldir. Bizdan talab qilinadigan vazifa esa, Po'lat Mo'mindek jonkuyar yozuvchilarimizning ijodiy meroslarini uka-singillarimiz, farzandlarimizga yetkazib berish va ko'proq kitob o'qishlariga qiziqitira olishdir. Zero, kitob kabi bolalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiluvchi, ularni ilm, ziyoga yetaklovchi do'st yo'q.

Adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – B. 199-200.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklori. – Toshkent, 2006. – B. 167-169.
3. Mo'min P. Bug'doy bobo. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2001.
4. Mo'min P. Dakan xo'roz – akang xo'roz. – Toshkent: Akadem nashr, 2020.
5. Mo'min P. Bo'ladigan bolalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.
6. <https://erkatoy.uz>

⁴ Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklori. – Toshkent, 2006. – B. 169.